


III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI


2022- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 8 589,4 mlrd so‘mni yoki 2021- yilning shu davriga nisbatan 103,5 foizni, shu jumladan, dehqonchilik, chorvachilik va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 8 382,9 mlrd so‘mni (103,4 foiz), ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 0,1 mlrd so‘mni (102,7 foiz), o‘rmonchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari - 71,6 mlrd so‘mni (102,4 foiz), baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari - 134,8 mlrd so‘mni (105,5 foiz) tashkil qildi.

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi va o‘shish sur‘atlari



Xususan, yuqori o‘shish sur‘ati Yangiobozor tumani (109,7 foiz), Shovot tumani (108,6 foiz), Bog‘ot va Tuproqqal’a (104,4 foiz) tumanlarida kuzatildi. Aksincha, eng past o‘zgarish Urganch (97,8 foiz) va Xiva (95,8 foiz) shaharlarida kuzatildi.


Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari mahsulot (xizmat)larining hududlar kesimida taqsimlanishi (foiz hisobida)



Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida hududlar bo‘yicha yetakchilik qilayotgan tumanlarning ulushi Urganch tumanida -11,5 foiz, Hazorasp va Xonqa tumanlarida -10,6 foiz va Shovot tumanida -10,1 foizni tashkil etdi va Urganch shahri hamda Tuproqqal‘a tumanlari mos ravishda 2,3 foiz ko‘rsatkich bilan keyingi o‘rinlarni egallashdi, eng kam ulush Xiva shahrida (0,4 foiz) qayd etildi.


Qishloq xo‘jaligi sohasida 2022- yilning yanvar- iyun oylarida 8 325,4 mlrd so‘mlik qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining o‘sishi 2021- yilning mos davriga nisbatan 103,4 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 114,0 foizni va chorvachilik mahsulotlari 100,1 foizni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar- iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)




Viloyat qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida eng katta ulushni dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari egallagan bo‘lib, 2022- yil yanvar- iyun oylarida jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 81,9 foizini (2021- yil yanvar- iyun oylarida – 85,6 foiz) tashkil qildi. Fermer xo‘jaliklari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 15,8 foizi ishlab chiqarilgan (2021- yil yanvar- iyun oylarida 12,1 foiz), shuningdek, qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar tomonidan jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 2,3 foizi (2021- yil yanvar- iyun oylarida –2,3 foiz) ishlab chiqarilgan.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilikning ulushi



Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




2022- yilning yanvar- iyun oylarida 8 325,4 mlrd so'mga teng bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarildi va ushbu hajmning 2163,6 mlrd so'mga teng qismi yoki 26,0 foizi dehqonchilik, 6 161,8 mlrd so'mga teng qismi yoki 74,0 foizi chorvachilik sohasiga to'g'ri keladi.

2022- yilning yanvar- iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishda Bog'ot tumani (34,7 foiz), Yangibozor tumani (30,9 foiz) va Tuproqqal'a tumanida (28,8 foiz) yuqori ko'rsatkich qayd etildi. Urganch shahri (3,5 foiz), Gurlan tumani (21,9 foiz), Hazorasp tumanida (23,7 foiz) dehqonchilik mahsulotlari salmog'ining kamayganligi qayd etildi.

Shuningdek, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori ko'rsatkichlari Urganch shahrida (96,5 foiz), Gurlan tumanida (78,1 foiz), Hazorasp tumanida (76,3 foiz) qayd etildi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining hududlar hamda xo‘jalik toifalari kesimida taqsimlanishi




Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti ulushining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkichlar barcha tuman va shaharlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining hissasiga to‘g‘ri kelishi kuzatildi. 2022- yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko‘ra, fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Yangibozor tumanida (25,9 foizi), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng yuqori ulushi Urganch va Xiva shaharlarida (99,4 va 99,3 foizi), qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Bog‘ot tumanida (4,7 foizi) qayd etildi.

Fermer xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo‘yicha eng kam ko‘rsatkich esa Tuproqqal'a tumani (0,8 foizi) va Xiva tumanida (0,9 foizi), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklarining eng kam ulushi Yangibozor tumanida (72,0 foizi) hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Xiva va Urganch (0,0 foizi) tumanlarida qayd etildi.



Dehqonchilik. 2022- yilning yanvar- iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlari umumiy hajmi 2163,6 mlrd so‘mni yoki jami yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining 26,0 foizini tashkil qildi. 2021- yilning shu davriga nisbatan o‘shiruvchi tashkilotlarda 93,0 mlrd so‘mni (153,9 foiz) tashkil qildi.

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishni hududlar kesimida xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Hosil yig'imi. 2022- yilning yanvar - iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 266 280 tonna jami don (126,5 foiz), shundan 259 749 tonna bugdoy (123,7 foiz), 66 923 tonna kartoshka (128,1 foiz), 94 094 tonna sabzavot (107,2 foiz), 8 081 tonna poliz (110,9 foiz), 34 617 tonna meva (104,3 foiz), 1 047 tonna uzum (113,2 foiz) yetishtirildi.




Chorvachilik. 2022- yilning yanvar- iyun oylarida chorvachilikda ishlab chiqarilgan mahsulotlar umumiy hajmi 6 161,8 mlrd so'mni yoki 2021- yilning shu davriga nisbatan 100,1 foizni, jumladan, fermer xo'jaliklarida 241,6 mlrd so'mni (115,5 foiz), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida 5 820,4 mlrd so'mni (99,9 foiz), qishloq xo'jalik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 99,8 mlrd so'mni (83,4 foiz) tashkil qildi.

Viloyat tumanlarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi (foiz hisobida)




2022 - yilning 1 - iyul holatiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 101,0 foizni (jami 937,2 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 102,1 foizni (350,5 ming bosh), qo‘y va echkilar 103,0 foizni (458,5 ming bosh), otlar 102,1 foizni (5,4 ming bosh), parrandalar 102,3 foizni (6286,7 ming bosh) tashkil qildi.

2022- yil 1- iyul holatiga chorva mollari bosh sonlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go‘sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o‘sishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 99,4 foizni, sut ishlab chiqarishda 99,5 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 76,7 foizni tashkil etdi.

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



2022- yil 1- iyul holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

	ming bosh	o'sish sur'ati, %
Yirik shoxli qoramol	937,2	101,0
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	67,2	112,4
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	860,6	100,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	9,4	106,8
ulardan: sigirlar	350,5	102,1
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	27,0	117,9
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	320,5	100,9
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	3,0	107,1

	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Qo'y va echkilar	458,5	103,0
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	71,5	121,8
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	367,0	96,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	20,0	307,7
Otlar, bosh	5435	102,1
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	684	114,8
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	4701	100,2
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	50	147,1
Parrandalar	6286,7	102,3
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	882,5	123,0
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	3875,2	100,7
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	1529,0	96,9


**2022- yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan
chorvachilik mahsulotlari**

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	89,1	100,7
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	2,7	121,0
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	85,9	100,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	0,5	117,4

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Sut, ming tonna	561,6	100,9
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	23,2	119,1
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	535,8	100,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	2,5	134,3
Tuxum, mln dona	244,2	89,3
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	20,8	103,3
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	166,4	102,0
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	57,0	63,1
Jun, tonna	608	104,3
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	79	116,2
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	527	102,5
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	2	200,0
Qorako'l teri, dona	5783	101,6
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklarida	483	82,1
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida	5244	102,8
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarida	56	–

2022- yilning yanvar-iyun oylarida fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 1 315,3 mlrd so'mni yoki 2021- yilning tegishli davriga nisbatan 128,3 foizni tashkil qildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo'jaliklarining ulushi 15,8 foizni tashkil etdi.

Fermer xo‘jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlanishi (foizda)



2022- yilning 1- iyul holatiga fermer xo‘jaliklarida 67,2 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan, 27,0 ming bosh sigir, 71,5 ming bosh qo‘y va echki, 684 bosh ot, 882,5 ming bosh parranda mavjud bo‘lib, 2021 - yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar soni 112,4 foizni, shu jumladan, sigirlar 117,9 foizni, qo‘y va echkilar 121,8 foizni, otlar 114,8 foizni, parrandalar 123,0 foizni tashkil qildi.


2022 - yilning yanvar-iyun oylarida fermer xo‘jaliklarida asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish

	yanvar-iyun				2021-yanvar-iyun oylariga nisbatan foiz hisobida
	2021- yil		2022- yil		
	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	
Sabzavot	11626	13,2	15587	16,6	134,1
Go‘sht, tirik vaznda	2196	2,5	2657	3,0	121,0
Sut	19500	3,5	23233	4,1	119,1
Tuxum, ming dona	20175	7,4	20841	8,5	103,3
Jun, tonna	68	11,7	79	13,0	116,2
Qorako‘l, dona	588	10,3	483	8,4	82,1

2022 - yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish


Jami don (tonna)

Jami viloyat bo'yicha
266 280




Boshoqli don (tonna)

Jami viloyat bo'yicha
265 577




Bug'doy (tonna)

Jami viloyat bo'yicha
259 749



Kartoshka (tonna)

Jami viloyat bo'yicha
66 923




2022 - yilning yanvar- iyun oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sabzavot (tonna)

Jami viloyat bo'yicha


94 094




Poliz (tonna)

Jami viloyat bo'yicha

8 881




Meva va rezavorlar (tonna) Jami viloyat bo'yicha 34 617



Uzum (tonna)

Jami viloyat bo'yicha

1 047





**2022- yil 1- iyul holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

Yirik shoxli qoramollar (bosh)
Jami viloyat bo'yicha 937 242





shu jumladan, sigirlar (bosh)
Jami viloyat bo'yicha 350 518



Qo'ylar va echkilar (bosh)
Jami viloyat bo'yicha
458 519




Parrandalar (ming bosh)
Jami viloyat bo'yicha
6286,7




2022 - yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


Go'sht (ming tonna)
Jami viloyat
bo'yicha 89,1




Sut (ming tonna)
Jami viloyat
bo'yicha 561,5




Tuxum (mln dona)
Jami viloyat
bo'yicha 244,2



Jun (tonna)
Jami viloyat bo'yicha 608



Baliq (tonna)
Jami viloyat
bo'yicha 6 550,6



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Dehqonchilik mahsuloti – hisobot davrida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko'p yillik yosh ko'chatlarni o'stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatlarining o'zgarishi yig'indisidir.

Chorvachilik mahsuloti – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o'stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish qiymatlarini o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

O'rmon xo'jaligi – o'rmon va o'rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. O'rmon xo'jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o'rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong'inga qarshi dasturlarni ishlab chiqish kiradi. O'rmon xo'jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag'ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko'chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o'suvchi qo'ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong'oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

Baliqchilik xo'jaligi – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohasining mahsuloti va ko'rsatilgan xizmatlar hajmini, shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko'paytirish va yaxshilashni o'z ichiga oladi.

Fermer xo'jaliklari - ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.